XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 8-iyun VII-35-75-10-0-K/26 Toshkent viloyati

Viloyat hududidan o‘tuvchi xalqaro ahamiyatga ega A-373 “Toshkent-Ohangaron-Angren-Qo‘qon-Shahrixon-Andijon” avtomobil yo‘lining 103-131-kilometrlari oralig‘ida yuqori harakatlanish tezligini kamaytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 98-sonli farmonining 3-bandiga asosan Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashabbuskorligini yanada oshirish maqsadida Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga “Yo‘llarning ayrim qismlarida harakatlanish tezligini oshirishga yoki kamaytirishga (tegishli yo‘l belgilari o‘rnatib) ruxsat berish” bo‘yicha takliflarga rozilik berish vakolati berilgan.

Toshkent viloyati Ohangaron tumani hududidan o‘tgan xalqaro ahamiyatiga ega A373 “Toshkent-Ohangaron-Angren-Qo‘qon-Shahrixon-Andijon” avtomobil yo‘lining 103-131-kilometrlari oralig‘ida yo‘l-transport hodisalarini oldini olish, fuqarolar va harakat xavfsizligini ta’minlash, maqsadida transport vositalarining yuqori harakatlanish tezligini jumladan,

M1 (yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan va haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan oshmaydigan avtotransport vositalari), **M2** (o‘rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 tonnagacha bo‘lgan avtotransport vositalari), **N1** (yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 tonnadan oshmaydigan avtotransport vositalari) toifadagi transport vositalari uchun yuqori harakatlanish tezligi **80 km/soatga**;

N2 (yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 tonnadan ortiq bo‘lgan, lekin 12 tonnadan oshmaydigan avtotransport vositalari), **N3** (yuk

tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 12 tonnadan ortiq bo‘lgan avtotransport vositalari) toifadagi transport vositalari uchun **50 km/soatga** kamaytirish, **3.24** “Yuqori tezlik cheklangan” (80 km/soat) va **3.24** “Yuqori tezlik cheklangan” (50 km/soat) va yo‘l belgilarini o‘rnatish zarurati yuzaga kelmoqda.

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 30-apreldagi yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligi departamenti yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining 2026-yil 19-martdagi 24/6-3761-sonli, Toshkent viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudovning 2026-yil 22-apreldagi 6-4-1984-sonli xati hamda Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hududiy maxsus komissiyaning 2026-yil 7-apreldagi yig‘ilish bayoni bilan taqdim etilgan hujjatlar ko‘rib chiqilib, tayyorlangan qaror loyihasi (regulation.gov.uz) portaliga joylashtirilib, jamoatchilik muhokamasi muddati 2026-yil 27-mayda yakunlangan.

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 30-apreldagi yig‘ilish bayoni va xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Toshkent viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudovning 2026-yil 22-apreldagi 6-4-1984-sonli xati hamda Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hududiy maxsus komissiyaning 2026-yil 7-apreldagi yig‘ilish bayoni ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 98-sonli farmoniga asosan, Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha

hududiy maxsus komissiyasining Toshkent viloyati Ohangron tumani hududidan o‘tuvchi xalqaro ahamiyatiga ega A-373 “Toshkent-Ohangaron-Angren-Qo‘qon-Shahrixon-Andijon” avtomobil yo‘lining 3 ta aholi yashash joyidan tashqari qismida harakat tezligini kamaytirish bo‘yicha taklifi **1-ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

3. “Qamchiqavtoyo‘l ixtisoslashtirilgan yo‘llardan foydalanish korxonasi” davlat muassasasi direktori B.Raxmanov:

o‘n kun muddatda ilovada ko‘rsatilgan hududlarda yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida harakat tezligini cheklash uchun **3.24** “Yuqori tezlik cheklangan” (80 km/soat), **3.24** “Yuqori tezlik cheklangan” (50 km/soat) va **7.4.1 - 7.4.10** qo‘shimcha axborot belgilaridan tegishlisi bilan birgalikda yo‘l belgilari o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Toshkent viloyati hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (G‘.Sheraliyev), viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi axborot xizmati (B.To‘laganov) viloyatning ayrim hududlarida harakat yo‘l transport xodisalarini oldini olish maqsadida harakat tezligi kamaytirilganligini ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Qarorning ijrosini ta’minlashga mas’ul etib, viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov hamda viloyati hokimligi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha guruhi rahbari F.Mirzayev belgilansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi A.Xudayberganov zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **FAYZIYEVA SAYYORA MAVLYANOVNA**

Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining
2026-yil 8-iyundagi
VII-35-75-10-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Viloyat hududidan o‘tuvchi xalqaro ahamiyatga ega A-373 “Toshkent-Ohangaron-Angren-Qo‘qon-Shahrixon-Andijon” avtomobil yo‘lining 103-131-kilometrlari oralig‘ida yuqori harakatlanish tezligini kamaytirish bo‘yicha

TAKLIFI

T/p	Manzili	Lokatsiyasi	Tuman yoki shahar	Avtomobil yo‘li bo‘yicha manzili	Mavjud holat	Taklif etilayotgan tezlik	
						yengil	yuk
1	Toshkent viloyati	**N 41°03'39.8", E 70°12'18.1"** **N 41°03'52.4", E 70°12'56.6"**	Ohangaron tumani	A-373 “Toshkent-Ohangaron-Angren-Qo‘qon-Shahrixon-Andijon” avtomobil yo‘lining 103-104-km oralig‘i	100	80	50
2	Toshkent viloyati	**N 41°03'59.8", E 70°13'33.7"** **N 41°04'20.3", E 70°14'00.7"**	Ohangaron tumani	A-373 “Toshkent-Ohangaron-Angren-Qo‘qon-Shahrixon-Andijon” avtomobil yo‘lining 105-106-km oralig‘i	100	80	50

3	Toshkent viloyati	**N 41°04'26.3", E 70°15'06.2"** **N 41°04'26.9", E 70°15'32.6"**	Ohangaron tumani	A-373 “Toshkent-Ohangaron-Angren-Qo‘qon-Shahrixon-Andijon” avtomobil yo‘lining 108-109-km oralig‘i	100	80	50
4	Toshkent viloyati	**N 41°04'26.9", E 70°15'32.6"** **N 41°09'17.6", E 70°26'54.1"**	Ohangaron tumani	A-373 “Toshkent-Ohangaron-Angren-Qo‘qon-Shahrixon-Andijon” a/y.ning 109-131-km oralig‘i	100	80	50